ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/1 (156)
2026

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC JOURNAL**

2026-yil, 2-son (156/1) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Siyosiy fanlar, O‘qitish metodikasi, Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R.I.XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI: **H.A.XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M.Q.Muhiddinov	-f.f.d., professor (SamDU)	B.E.Ergashev	-t.f.d., professor (SamDU)
Stefano Benazzi	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	S.A.Karimov	-f. f. d., professor (SamDU)
Simone Mantelini	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	M.X.Lutfullayev	-p.f.d.. professor (SamDU)
Sh.Y.Ziyodov	-i.f.d. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)	A.R.Samadov	-fal. f.d., professor (SamDU)
N.U.Arabov	-i.f.d., professor (SamDU)	Sh.A.Hasanov	-f.f.d., professor (SamDU)
Hiroaki Huziie	-Osaka universiteti professori (Yaponiya)	B.S.G‘oyibov	-t.f.d., professor (SamDU)
B.O.To‘rayev	-fal. f.d., professor (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-	G.B.Normurodova	-t.f.d., professor (SamDU)
A.B.Pardayev	-f. f.d., professor (SamDU)	F.Sh.Rashidova	-t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.Yusupova	-f.f.n., dotsent (SamDU)	D.Q.Usmonova	-i.f.n., dotsent (SamDU)
O.Qodirov	-p.f.n., dotsent (SamDU)	N.A.Isakova	-f.f.n., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun - **5583,**
tashkilot, korxonalar uchun- **5584**

M U N D A R I J A
C O N T E N T S

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
1	Bakalavriat ta'lim tizimida fizika fanidan mustaqil ta'limni raqamli simulyatsiyalar asosida tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari **Amonov B., Umrzoqov F.**	Scientific and methodical foundations of organizing independent learning in physics within the undergraduate education system based on digital simulations **Amonov B., Umrzokov F.**	**5-11**
2	Роль притч и легенд в контексте художественного произведения. структурообразующаяя функция жанров устного народного творчества (на материале современной узбекской литературы) **Ишниязова Ш.А.**	The role of parables and legends in the context of a literary work. the structure-forming function of genres of oral folk creativity (based on the material of modern Uzbek literature) **Ishniyazova Sh.A.**	**12-17**
3	Axborotlashgan jamiyatda virtual madaniyat va ijtimoiy tarmoqlar: axloqiy-falsafiy tahlil **Xaydarov X.S.**	Virtual culture and social networks in the information society: an ethical and philosophical analysis **Khaydarov X.S.**	**18-23**
4	Bilingvizmning kognitiv rivojlnishdagi o'rni va ahamiyati **Xushmurodova Sh. Sh.**	The role and significance of bilingualism in cognitive development **Khushmurodova Sh. Sh.**	**24-29**
5	Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы **Исакова Д.Т., Аронбаев С.Д., Аронбаев Д.М.**	Integration of media education with a secondary school chemistry course **Isakova D.T., Aronbaev S.D., Aronbaev D.M.**	**30-35**
6	Raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik: global tendensiyalar va O'zbekiston kontekstida nazariy tahlil **Ahrorov S.**	Social media addiction amidst digital transformation: global trends and a theoretical analysis in the context of Uzbekistan **Ahrorov S.**	**36-46**
7	Talabalar bilan "Galogenlar"mavzusini o'rganishda interfaol uslublardan foydalanish **Aminov Z., Aripova M., Murodov X.**	Using interactive methods in teaching the topic "halogens" to students **Aminov Z., Aripova M., Murodov X.**	**47-50**
8	Ардашир I и основание Сасанидской державы **Зияев О.К.**	Ardashir I and the Foundation of the Sasanian Empire **Ziyaev O.K.**	**51-55**
9	Geometriya fanini o'qitishda vizuallashtirishning pedagogik-psixologik asoslari va fazoviy tafakkurni rivojlantirish mexanizmlari (Akademik litsey kontekstida) **Xoliqov L.**	Pedagogical and psychological foundations of visualization in teaching geometry and mechanisms for developing spatial thinking (In the context of academic lyceums) **Kholikov L.**	**56-60**
10	Ingliz va o'zbek madaniyatlarida tabiatning lingvistik tasviri: metaforalar va madaniy qadriyatlar **Shamsiddinova N.F., Ruziyeva S.A.**	Linguistic representation of nature in English and Uzbek cultures: Metaphors and cultural values **Shamsiddinova N.F., Ruzieva S.A.**	**61-68**
11	O'quvchi yoshlarning istiqbol hayot rejalarini belgilashda ijtimoiy raqobatning o'rni **Abduvaliyev F.**	The role of social competition in shaping the future life plans of students **Abduvaliev F.**	**69-74**

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
12	Umumiy o‘rta ta’lim tizimida hr texnologiyalar va pedagoglarni boshqarishning singapur tajribasi **Turikova L.M.**	HR technologies and singapore’s experience in managing educators within the general secondary education system **Turikova L.M.**	**75-79**
13	Dafn marosimlarining an’anaviy va zamonaviy talqini **Kamalova D.**	Traditional and modern interpretations of funeral rites **Kamalova D.**	**80-84**
14	O‘zbek va ingliz tillarida predloglar va bog‘lovchilarning sintaktik vazifalarining qiyosiy tadqiqi **Rasulova I.I.**	A comparative analysis of the syntactic functions of prepositions and conjunctions in uzbek and english languages **Rasulova I.I.**	**85-89**
15	Mustamlaka davrda samarqand “Yangi shahar” qismining me’moriy qiyofasi **Ergashev B.E., Davronova Z.P.**	Architectural appearance of the «new city» part of Samarkand in the colonial period **Ergashev B.E., Davronova Z.P.**	**90-96**
16	Ingliz va o‘zbek paremiologik birliklarida “Bilim” tushunchasining amalga oshirilishi **Rofeyeva Sh. D.**	The realization of the concept of "Knowledge" in english and uzbek paremiological units **Rofeyeva Sh. D.**	**97-103**
17	Ingliz va o‘zbek maqollarida son kategoriyasi: ko‘chma, ijtimoiy va falsafiy ma’nolarning qiyosiy tahlili **Usmanov S.B.**	The category of number in english and uzbek proverbs: a comparative examination of figurative, social, and philosophical meanings **Usmanov S.B.**	**104-110**
18	So‘z tartibi va sintaktik bog‘lanishlarning qiyosiy modeli: svo va sov tizimi (Fransuz va O‘zbek tillari misolida) **Eshmurodova Z.R.**	Comparative model of word order and syntactic connections: SVO And SOV system (on the example of the French and Uzbek languages) **Eshmurodova Z.R.**	**111-115**
19	Samarqandning kulollik xumdonlarining texnologik va hududiy tahlili (XI–XIII asr boshlari) **Nazarov A.A.**	Technological and spatial analysis of pottery kilns of Samarkand (11th – early 13th centuries) **Nazarov A.A.**	**116-124**
20	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida moduyar arifmetika tushuchalarini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarni tadqiqot faoliyati usullarini shakllantirish **Jurakulov M.S.**	Developing student research methods in teaching modular arithmetic concepts in school **Jurakulov M.S.**	**125-132**
21	Raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish metodlari va vositalari **Aminov I.B., Abdusobirova M.**	Methods and tools for using digital educational platforms **Aminov I.B., Abdusobirova M.**	**133-140**
22	Ingliz va o‘zbek tillaridagi biznes kommunikatsiya formulalarining lingvo madaniy tadqiqoti **Xolboyeva F.A.**	Linguacultural study of business communication formulas within the context of the english and uzbek languages **Kholboeva F.A.**	**141-147**

UDK: 393.05.92 https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3843

DAFN MAROSIMLARINING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TALQINI

D.Kamalova
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus, O'zbekiston.

D.Kamalova
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus, O'zbekiston.

Kelib tushgan: 13.03.2026
Ko'rib chiqildi: 27.03.2026
Qabul qilindi: 12.04.2026
Nashr qilindi: 30.05.2026

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

Annotatsiya:Ushbu maqolada Qoraqalpog'istonning janubiy hududida yashovchi qozoq va o'zbek xalqlarining dafn marosimlarida XX asr oxiri hamda XXI asrda yuz berayotgan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot qiyosiy tarixiy va empirik yondashuv asosida olib borildi. Ma'lumotlar dala suhbatlari orqali to'plandi hamda taqqoslash usuli yordamida tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, ijtimoiy-madaniy muhit dafn marosimlari an'analarining tiklanishi va o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. Tadqiqot jarayonida muallif dafn marosimlarini tartiblovchi qonunchilik hujjatlariga e'tibor qaratgan. Shuningdek, ushbu mavzu doirasida tadqiqot olib borgan olimlarning faoliyatini ham o'rgangan.

Kalit so'zlar: aza libosi, an'anaviylik, qabriston, Qur'on xatm qilish, xalfa, zamonaviylik, o'zbek.

Традиционные и современные интерпретации погребальных обрядов

Аннотация. В данной статье анализируются изменения в погребальных обрядах среди казахского и узбекского народов южного региона Каракалпакстана на рубеже XX и XXI веков. Данное исследование проводилось на основе сравнительно-исторического и эмпирического подхода. Данные собирались посредством полевых интервью и анализировались с использованием сравнительного метода. По результатам анализа было установлено, что социокультурная среда напрямую влияет на возрождение и изменение похоронных традиций. В процессе исследования автор уделял внимание законодательным документам, регулирующим похоронные обряды. Автор также изучал деятельность ученых, проводивших исследования по данной теме.

Ключевые слова: траурная одежда, традиции, кладбище, чтение Корана, халфа, современность, узбек.

Traditional and modern interpretations of funeral rites

Abstract. This article analyzes the changes in funeral rituals among the Kazakh and Uzbek peoples of the southern region of Karakalpakstan at the turn of the 20th and 21st centuries. This study was conducted on the basis of a comparative-historical and empirical approach. Data were collected through field interviews and analyzed using the comparative method. According to the results of the analysis, it was observed that the socio-cultural environment directly affects the revival and change of funeral traditions. In the process of research, the author paid attention to legislative documents regulating funeral ceremonies. He also studied the activities of scientists who conducted research on this topic.

Keywords: mourning dress, tradition, cemetery, reciting the Quran, khalfa, modernity, Uzbek.

Kirish. Dunyoda globallashuv va yangilanish jarayonlari sodir bo‘layotgan bir davrda dafn marosimlarida ham bir qator o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Bu borada keskin o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga koronavirus pandemiyasi ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. Natijada dunyo miqiyosida ushbu masalaga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy maqolalar chop etildi. Ushbu mavzu nafaqat tarix va etnografiya, balki tibbiyot sohasida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dafn marosimlarini islom dini tamoyillari asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, jamiyatimizda shariyatda belgilangan amallardan tashqari turli xil nojo‘ya urf-odat va xatti-harakatlar ham uchrab turadi. Ko‘pincha bunday holatlarning asossiz ekanligi ma’lum bo‘lsa-da, odamlar an’anaga suyangan holda ularni davom ettiradilar va jarayonda bevosita ishtirok etadi. Bu esa mazkur masalaga yanada jiddiy yondashish zarurligini ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda diniy tashkilotlar va mutaxassislar tomonidan tushintirish ishlari olib borilayotganiga qaramay, bu borada kutilgan natijalarga to‘liq erishilmayapti.

Mazkur tadqiqotda o‘zbek va qozoq xalqlarining janoza marosimlari hamda ular bilan bog‘liq an’analarning o‘ziga xos jihatlari muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada janoza marosimining an’anaviy ko‘rinishlari hamda zamonaviy davrdagi o‘zgarishlar va yangicha talqinlari yoritish asosiy maqsad qilib olingan.

Maqolada doirasida quyidagi vazifalar ilgari surildi: o‘zbek va qozoq xalqida janoza marosimida yig‘ining o‘rni va uning tarixiy shakllarini tahlil qilish; shuningdek, hozirgi davrga kelib ba’zi an’analarning o‘zgarish jarayonlarini aniqlash va baholash.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dafn va janoza marosimlarini o‘rganishda bir qator olimlarning ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, G. P. Snesarov[1] o‘zining tadqiqotlarida Xorazm vohasi hududini bir necha yillar davomida chuqur o‘rganib, janoza marosimlariga oid ayrim an’analarning tarixiy ildizlarini ham yoritib bergan. Bu esa bizning tadqiqot obyektimiz bilan chambarchas bog‘liq.

Q. Nasriddinov[2] esa mustaqillik yillarida Qashqadaryo vohasida amal qilinayotgan dafn marosimlari hamda ular bilan bog‘liq vasiyat qilish haqida ham o‘rganib, mazkur jarayonlarni chuqur tahlil qilgan.

M. Payziyeva [3] Toshkent shahri aholisining dafn marosimlarini o‘rganar ekan, O‘rta Osiyo xalqlarida o‘limga oid marosimlarning eski qatlamlari saqlanib qolganini ko‘rsatib beradi; shu kabi fikrlar I.A. Kremleva [4] tomonidan olib borilgan rus xalqlarining dafn marosimlariga oid etnografik tadqiqotlarda ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Qoraqalpoq xalqining dafn marosimlari X. Esbergenov[5] tomonidan tadqiq etilib, unda respublikaning boshqa hududlariga nisbatan farqli jihatlar, xususan, janoza marosimining o‘ziga xos xususiyatlari tasvirlangan.

Shuningdek, qozoq etnografi A. Toleubayev[6] qozoq xalqiga xos dafn marosimlarini batafsil tasvirlab bergan. Quyi Amudaryo hududidagi qozoqlarning urf-odatlarini o‘rgangan A. Bijanova[7] esa o‘z ilmiy ishlarida marhumni dafnga tayyorlash jarayonlari hamda ayrim bid’at tusini olgan urf-odatlarga alohida to‘xtalib o‘tgan.

Mahalliy qadriyat va madaniyat odamlarning hayotini belgilashda muhim rol o‘ynashi haqida chet el olimlari Cocks va b., [8] va Mungmachon[9]ning maqolalari diqqatga sazovor.

Har bir xalqning yo‘qolib borayotgan an’analarni saqlab qolishda mahalliy bilimlarning ahamiyati katta albatta. Döring & Nerlich [10] tadqiqotlari jarayonida bunga alohida ahamiyat bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot Qoraqalpog‘iston Respublikasi janubiy qismida yashovchi o‘zbek va qozoq aholisining dafn marosimlariga oid amaliyotlarining an’anaviy va zamonaviy ko‘rinishini o‘rganishga qaratildi. Metodologiya empirik, zamonaviy antropologik yondashuvlarga hamda klassik etnografik tadqiqotlarga tayanadi. Ushbu ish yaratilishiga ikki yil davomida (2024–2025) tadqiqotchi tomonida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Amudaryo, Beruniy, To‘rtkul, Ellikqal’a tumanlarida ishtirokchi kuzatuv uslubi orqali marosimni “ichidan” kuzatib, muntazam qaydlar olib borishi muhim manba hisoblanadi. Strukturalangan va erkin suhbatlar tashkil etilib, marosimning tarixiy o‘zgarishlari haqida tajribalar to‘planilgan.

Dala yozuvlari 1932–1970 yillarda tug‘ilgan 10 nafar mahalliy axborotchi: marosimlar va an’analar haqida keng bilimga ega, tajribali mahalliy aholi vakillari sifatida tanlandi. Ular orqali marosimlarning qadimiy tarixi, hududga xos tarzda yuz bergan transformatsiya haqida ma’lumot olindi.

Tahlil va natijalar. Dafn marosimining eng muhim bosqichlaridan biri janoza marosimi hisoblanadi. Janoza marosimi islomdan avval ham mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, islom dini ta’sirida u

aniq tartib va qoidalarga ega bo‘lib takomillashgan. Bugungi kunda musulmon mamlakatlarida janoza marosimlari umumiy diniy tamoyillarga asoslangan holda, mahalliy urf-odatlar bilan uyg‘unlashgan tarzda o‘tkaziladi.

Xususan, o‘zbek va qozoq xalqlarida islom dinga e’tiqod qilish natijasida dafn marosimlari o‘xshash jihatlarga ega. Islom dinining muqaddas kitobi bo‘lgan Qur’oni karimda janoza marosimi tafsilotlari to‘liq bayon etilmagan bo‘lsa-da, u bilan bog‘liq amallar asosan hadis va fiqh manbalari orqali shakllangan. Shu sababli, janoza marosimlari har bir hududda o‘ziga xos xususiyatlar bilan namoyon bo‘ladi.

Janoza marosimi bilan bog‘liq jarayonlarda marhum haqidagi xabarni yetkazish eng dastlabki bajariladigan muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yaqin qarindoshlarga bu noxush xabarni yetkazishda so‘zga chechan, mulohazali insonlar tanlanadi. Qozoq xalqida ushbu jarayon “есгірту”[11] deb nomlanib, unda xabar to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki uzoqdan boshlab, muloyimlik bilan yetkaziladi hamda tinglovchini sabr-toqatga chaqirish muhim o‘rin tutadi. Bu esa marosimning nafaqat axborot berish, balki ruhiy tayyorgarlik vazifasini ham bajarishi kerak. Zamonaviy sharoitda esa ushbu an’ana ma’lum darajada transformatsiyaga uchrab, marhum haqidagi xabar hamkasblar yoki boshqa tengdoshlari kabi yaqinlariga mobil telefonlar yoki ijtimoiy tarmoqlar xususan Telegram orqali yetkazish holatlari keng kuzatilmoqda. Bu esa an’anaviy marosimlarning zamon ruhiga mos o‘zgarib borayotganini ko‘rsatadi.

Janoza marosimida yig‘lash marhum bilan xayrlashish jarayonida insonlarning tabiiy hissiyotlari namayon bo‘ladigan holat hisoblanadi. Islom dini ta’limotida yig‘lashning ma’lum chegaralari belgilangan bo‘lib, haddan tashqari baland ovozda yig‘lash (yuzini tirnash sochini yoyib yoki yulib yig‘lash) man qilinadi. Yig‘ini ma’lum bir darajada tartibga solish maqsadida mahalliy aholi orasida turli ishonch va qarashlar ham shakllangan. Ammo tarixiy etnografik manbalarda qayd etilishicha, motam yig‘ilari jarayonida ayollarning sochlarini yoyib yig‘lashi, ba’zan yularini tirnab yig‘lashi holatlari kuzatilgan[12].

Janoza marosimlarida ayollar yig‘isi alohida ahamiyat kasb etib, uning shakli ko‘p jihatdan marhumning yoshiga ham bog‘liq bo‘lgan. Xususan, to‘satdan yoki yosh o‘lim holatlarida yig‘i yanada iztirobli va turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lgan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollarning motam yig‘isi oldingi davrlardan farqli ravishda yig‘i nisbatan sokin va me’yoriy ko‘rinishga ega bo‘lmoqda. Bu insonlarning diniy qarashlari ancha rivojlanganligini va uning nolasi Xudoga nisbatan isyon ekanligini anglashi bilan izohlanadi.

Xalfa-shariat qoidalarini chuqur biladigan, o‘qimishli shaxs hisoblanadi[13]. Janoza marosimida xalfalarning ham o‘rni katta bo‘lib, u Qur’on tilovati bilan bir qatorda, marhumning yaqinlariga tasalli berish maqsadida turli xil rivoyatlar va sabr-toqatga chaqiruvchi pand-nasihatlarni ham o‘qiydi. Tadqiq qilinayotgan hududlarda bugungi kunda ham xalfalar mavjud ammo ularning soni sezilarli darajada kamaygan.

Barcha turkiy xalqlarda mavjud bo‘lgan “yo‘qlov” an’anasi qozoq xalqida ham katta ahamiyatga ega. Жоқтау- bu marhumning yaxshi fazilatlarini ifodalovchi she’r yoki marsiyadir. A.N. Kononov eski turkiy tilida “yo‘q” so‘zning bir ma’nosini “qazo, o‘lim” ekanini ko‘rsatadi[14].

Yurtimizning boshqa viloyatlarida esa maxsus yollangan go‘yandalar turli yig‘ilarni maromiga keltirib, ularni tartib bilan o‘tkazadilar. Qozoq xalqida maxsus yo‘qlov aytuvchilar hozirgi kunda ham mavjudligi dala yozuvlari jarayonida kuzatilgan. Ularning faoliyati jarayonida yig‘i matnlarida qat’iy turg‘unlikning mavjud emasligi, ya’ni har xil aytilish shakllari mavjudligi aniqlangan.Quyida dala yozuvida olingan onaning farzandi bevaqt o‘limidan zorlanib aytgan nolasi keltirilgan.

Ag‘im bir suwdin ag‘isi
Aq o‘ramal nag‘isi
Qulag‘imnan ketpeydi
“Anashim” degen dawisi
Esiktin aldi shiyedi
Shiyege bo‘yin tiyedi
Qatar bir qurbin kelgende
Ishim bir o‘tday kuyedi.

Farzandning onasi vafoti munosabati bilan aytilgan “Awzina suwsin bo‘ldim”, “basina jastiq bo‘ldim”,“mendan irzo bo‘ling” kabi so‘zlardan foydalanishini aniqlandi. Bu kabi yo‘qlovlar qozoq xalqida marhumning “qirq”iga qadar turli shaklda aytilishi qayd qilindi [15].

Janozadan oldin “fidiya” marosimi amalga oshiriladi. Fidiya qozoqlarda islom dini qabul qilingandan keyin shakllangan bo‘lib, bu marhumning o‘qilmagan namozi yoki tutilmagan ro‘zasi uchun bajariladigan marosim. Bu marosimda marhumning oila a’zolari mulladan uning gunohlarini kechirish uchun duo qilishni so‘raydi va buning evaziga mullaga biror narsa beradilar. Bugungi kunga kelib, fidiya marosimi yangi ko‘rinishga ega bo‘lib, Qur’oni Karimni xatm qildirish odat tusiga kirib bormoqda. Dala tadqiqoti jarayonida marhum vafot etgach, dinni yaxshi biladigan va arab tilida ravon o‘qiy oluvchi shaxslar birgalikda marhumning janozasiga qadar Qur’oni Karimni hatm qilishi holatlari kuzatildi. Bu marosim keraksiz bid’atlardan ko‘ra, eng savobli an’ana sifatida qabul qilinmoqda.

Marhumni uyidan chiqarib ketayotgan paytda ayollar erkaklar tomon chiqib yoki qarsak chalib yig‘lash holatlari ham uchrab turadi. Garchi bu diniy jihatdan nojoiz hisoblansa-da, xalq orasida uchratishimiz mumkin.

Aza davri islom ta’limotida uch kun deyilsa-da, xalqimizda bu muddat amalda bir muncha uzoq holatni kuzatishimiz mumkin. Aza kiyimlari turli hududlarda rang jihatdan farqlanadi: ba’zi joylarda oq, boshqa joylarda esa ko‘k rangda bo‘lishi kuzatiladi. Ular har doim toq sonda bir xil matodan tikiladi. Muhim jihati shundaki, bir inson vafoti munosabati bilan tikilgan aza libosi boshqa marhum uchun kiyilmaydi. Tikilish uslubida ham o‘ziga xos qoidalar mavjud: aza libosining yengi qaytarib tikilmaydi, lozimida esa “jiyak bo‘lmaydi. Agar aza kiyimi yirtilsa, uni yamab tikish odat qilinmaydi. Bu holat “yana aza bo‘lishi mumkin” degan ramziy ma’noni anglatadi.

An’anaviy tarzda aza bir yil davom etgan bo‘lsa, bugungi kunda ko‘pchilik hududlarda “yuz” sadqasiga qadar tutiladi. Hozirgi davrda esa maxsus tiktirilgan aza kiyimlari deyarli ishlatilmaydi.

Marhum vafotidan so‘ng erkaklar tobut yasatish, qabristondan ruxsat olib qabr tayyorlash kabi ishlarni tashkil etadilar. Shahar sharoitida esa bu ishlar bilan maxsus firmalar shug‘ullanadi. Ular o‘zlarning xizmati jarayonida tobutlar, katafalk mashinalar hamda qabristonda bajariladigan ishlarni taklif etadilar. O‘tgan asrlarda qabristonlar sodda ko‘rinishga ega bo‘lib, ba’zan yirik kesak uyumi ham qabr vazifasini bajargan**[**16]. Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston hududida qabrlar asosan yorma shaklda bo‘lib, joylashgan hududga tabiiy sharoitiga qarab har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, janubiy hududlarda joylashgan yirik qabriston ziyoratgohlar – Sulton Uvays bobo, Norinjon bobo, Shayx Jalil bobo kabi maskanlarda – toshli hudud hisobga olinib, qabr qazilmasdan yer ustiga quriladi.

Marosimlarning jamiyatdagi ijtimoiy roli:

-jamiyatning axloqiy me’yorlarini mustahkamlashda;

-qarindoshlik rishtalarining yanada faollashishida;

-jamoaviy xotirani shakllantirishda;

-ruhan taskin berishda;

-ommaviy birdamlikni yanada kuchaytirishda katta ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Shu kabi holatlar suv sathiga yaqin joylashgan qabristonlarda ham uchraydi. Qabristonlarda qabrlarning joylashuvi ilgari qarindoshlik aloqalariga qarab belgilanar edi. Bugungi kunga esa ular tartib bilan raqamli joylashtirilmoqda. Zamonaviy talablar asosida kelajakda “raqamli memorial” amaliyoti joriy etilsa, qabrlarga QR kod o‘rnatilib, marhum haqida ma’lumot olish imkoniyati yaratilishi mumkin.

Shu bilan birga marhumning ma’rakalarini o‘tkazish jarayonidagi ortiqcha dabdaba va isrofgarchiliklarni kamaytirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmoqda. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2019-yil 14-sentabrdagi “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi[17]. Bu haqida jadidchilik davrida bir qancha maqolalar chop etilganligini ta’kidlashimiz mumkin[18]. Bugungi kunga kelib, marhumning ma’rakalari hajmi ham anchagina qisqargan. So‘nggi yillarda xalq orasida marhumning xotirasi uchun “Qur’on” yoki hadis kitob tarqatish holatlari ham kuzatilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda marhumga atab sahifa yaratish yoki turli video va foto tasmalar yaratish holatlari kuzatilmoqda.

Xulosa. Tadqiqot natijalari marosimlarning tarkibiy qismi zamonga xos tarzda o‘zgargani kuzatilishiga qaramay, asosiy qismi islomiy qoidalarga tayangan e’tiqodlar, qadimiy turkiy tasavvurlar va mahalliy urf-odatlar saqlanib qolganini ko‘rsatadi. Kuzatuvlar davomida o‘zbek va qozoq xalqlarining dafn marosimlari diniy va ijtimoiy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazish va kollektiv birdamlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Yo‘qlov she’rlari esa, ayniqsa, qozoq xalqida

muhim ahamiyat kasb etishi, shuningdek, og‘zaki poetik janr sifatida qayg‘uni ifodalovchi vazifani bajarishi bilan ajralib turadi.

Ushbu tadqiqot marosimlarning zamonaviy sharoitda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini, balki jamiyatning ruhiy barqarorligini ta’minlovchi asosiy institutlardan biri sifatida saqlanib qolayotganini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar

1. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. –М.: Наука, 1969. – 336 с.
2. Насриддинов Қ. Ўзбек дафн ва таъзия маросимлари. –Тошкент: Мерос, 1996. – 144 б.
3. Payziyeva M. O‘zbeklarning an’anaviy va zamonaviy motam marosimlari. –Toshkent: Yangi nashr, 2014. – B. 4-17.
4. Кремлева И. А. (2000). Похоронно-поминальные обычаи и обряды. Русские: Народная культура. История и современность (Т. 3, с. 231-265). – Москва: Наука.
5. Есбергенов Х. К вопросу о борьбе с пережитками устаревших обычаев и обрядов. 1963. – С. 32-45.
6. Толеубаев А.Т. Реликты доисламских верований в семейной обрядности казахов. – Алматы: Наука, 1991. – 210 б.
7. Бижанова. А.Е. Семейно- бытовые обряды казахов низовьев Амударьи конец XIX-начало XX вв.// Автореф. дисс. к-на истор наук. – Нукус, 2001. –С.147.
8. Cocks, Edward S. H. (2018). Indigenous core values and education: Community perspectives on preserving local knowledge. Curriculum Inquiry, 48(4), 415–432. https://doi.org/10.1080/03626784.2018.1518112.
9. Mungmachon, R. (2012). Knowledge and local wisdom are community treasures. International Journal of Humanities and Social Sciences, 2(13), 174–181.
10. Döring, M. and Nerlich, B. (2022). Framing the 2020 coronavirus pandemic with metaphors, pictures, and symbols. Metaphor and Symbol, 37(2), 71–75. https://doi.org/10.1080/10926488.2021.2004378.
11. Кенжеахметұлы С. Қазақ халқыны салт-дәстүрлері. – Алматы, 2006. – 262 С.
12. Payziyeva M. O‘zbeklarning an’anaviy va zamonaviy motam marosimlari. –Toshkent: Yangi nashr, 2014. –B. 9.
13. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3- jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2023. –B. 436.
14. Кононов А.Н. Грамматика языка трюксих рунических памятников VII-IX вв. -Л.: Наука, 1980.
15. Dala yozuvi. Rahimova O‘giljon. 1932. Amudaryo tumani Katta xalqa yo‘li 3-xonadon.
16. Dala yozuvi. Erjanova Sawle. 1962. Qozoq. Xojeli tumani.Paxta talasi. Bag‘dawlet 49-uy.
17. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qo‘shma qarori, 14.09.2019 yildagi 2736-III-son.
18. Беҳбудий М. Бизни кемирувчи иллатлар / Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006. 190-193-б.

SAMARQAND UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir **Sh.Xoliqulov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - fil.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrir:

A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma.uz
SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 30.05.2026-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00
Buyurtma raqami 845 Adadi 30 nusxa.

ISSN 2181-1296